



SIRDARYO VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI **BUYRUG'I**

6 may 2024 yil.

163-ICH-son

Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagagi "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiining 2024-yil 5-aprel kunidagi 53-son buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagagi "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Belgilab qo'yilsinki:

a) monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjalariiga muvofiqligini ta'minlash, huquqbazarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillarni o'z ichiga oladi.

b) quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari etib belgilansin:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjalaring ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash, ularni baholash va boshqarib borish;

Bosh boshqarma faoliyatini raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjalari talablariga muvofiqlashtirish va monitoring qilish;

Bosh boshqarma faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi hamda rahbariyat tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash mexanizmini joriy etish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha xodimlarning malakasini oshirish maqsadida o‘qitish, raqobat qonunchiliga doir amaliy ishlarni rivojlantirish.

4. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining vazifalari va funksiyalari Komplaens nazorat bosh mutaxassisiga (U.Xaydarov)ga yuklatilsin.

5. Quyidagilar:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha biriktirilgan xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari 1-ilovaga;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Vazirlikning 2023-yil 26-maydagi 91-sod buyrug‘i 1-ilovasi va 2-ilovasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilganligi hamda vazirlik tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilisi xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Bosh boshqarma tuman (shahar) bo‘limlari va tasarrufiy tashkilotlar ushbu tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

8. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Bosh boshqarma boshlig‘i



Sh.Yakubov